

O'ZBEK ADABIYOTI TARIXIDA MAKTBUB JANRINING TARIXIY ILDIZLARI VA UNING TAKOMILI

*Ergasheva Dilshoda Abdusalomovna,
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi tayanch doktoranti
dilshodamuslimabonu@gmail.com*

Annotatsiya. Maqolada o'zbek adabiyoti tarixida maktub janri evolyutsiyasi, xalq og'zaki ijodidagi yozishmalarining ahamiyati, maktub janrining abdyiyotimizda tutgan o'rni, maktub janri nafaqat adabiy-estetik janr, balki ma'lum ijtimoiy davrning tarixiy-daliliy hujjati ham ekanligi maqolada yoritilgan.

Kalit so'zlar: maktub janri va uning genezisi, xalq og'zaki ijodida maktub janri xususiyatlari, "Alpomish", "Gilgamish", "Avesto", "Orxun-Enasoy" obidalari, "Devoni lug'otit turk", "Qutadg'u bilig", "Xamsa", "Boburnoma".

ÖZBEK EDEBİYATI TARİHİNDE HARF TÜRÜNÜN TARİHSEL KÖKLERİ VE EVRİMİ

*Ergaşeva Dilshoda Abdusalomovna,
Özbek-Finlandiya pedagoji enstitüsü
özbek dili ve edebiyati bölümü doktora öğrencisi*

Özet. Makale, Özbek edebiyati tarihinde harf türünün evrimini, halk sözlü yaraticılığında yazışmanın önemini, harf türünün ortaklaşamadıktaki rolünü, harf türünün sadece edebi-estetik bir tür değil, aynı zamanda belirli bir türün tarihsel-kanıtlayıcı bir belgesi olduğu gerçeğini kapsamaktadır. sosyal çağ.

Anahtar kelimeler. Mektubun türü ve oluşumu, halk sözlü yaraticılığında mektubun türünün özellikleri, "Alpomiş", "Gilgamiş", "Avesto", "Orhun-Enasoy" anıtları, "Devoni sözlük türkçesi", "Kutadgü bilig", "Hamsa", "Babürname".

HISTORICAL ROOTS OF THE LETTER GENRE IN THE HISTORY OF UZBEK LITERATURE AND ITS EVOLUTION

*Ergasheva Dilshoda Abdusalomovna,
doctoral student of the Department of Uzbek language and literature
Uzbek-Finnish pedagogical institute*

Annotation. The article covers the evolution of the letter genre in the history of Uzbek literature, the importance of correspondence in folk oral creativity, the role of the letter genre in our symbiose, the fact that the letter genre is not only a literary-aesthetic genre, but also a historical-evidential document of a certain social era.

Keywords. The genre of the letter and its genesis, features of the genre of the letter in folk oral creativity, "Alpamis", "Gilgamish", "Avesto", "Orxun" monuments, "Divan-i lughat-it-Turk", "Kutadgu Bilig", "Khamsa", "Baburnama".

ИСТОРИЧЕСКИЕ КОРНИ ЖАНРА ПИСЬМА И ЕГО СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ В ИСТОРИИ УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

*Эргашева Дишиода Абдусаломовна,
докторант кафедры узбекского языка и литературы*

Узбекско-Финского педагогического института

Аннотация. В статье освещается эволюция жанра письма в истории узбекской литературы, значение переписки в устном народном творчестве, роль жанра письма в нашей литературе, то, что жанр письма является не только литературно-эстетическим жанром, но и историко-доказательным документом определенного социального периода.

Ключевые слова: жанр письма и его генезис, особенности жанра письма в устном народном творчестве, памятники "Алломии", "Гильгамеш", "Авеста", "Орхун-Енисей", "Диван лугат ат-турк", "Кутадгу билиг", "Хамса", "Бабурнаме".

"Maktub" so'zi arabcha so'z bo'lib izohli va etimologik lug'atlarda "yozmoq, bitmoq" ma'nolarini ifodalaydi. Ushbu janr adabiy-tarixiy manba bo'lib, xalq etimologiyasi, dialektologiyasi, frazeologiyasi, stilistikasi, adresantning ichki olami bilan birga u yashagan davr, muhitdan xabar beruvchi daliliy hujjatdir. Bu janr, dastlab, og'zaki ko'rinishda vujudga kelgan bo'lsa, keyinchalik yozma adabiyotning evolyutsiyasi bilan chambarchas bog'liq ravishda taraqqiy etib bordi.

Maktub janrining taraqqiyot bosqichlariga nazar tashlasak, jamiyat shakllanishi natijasida insonlar o'rtasida muloqotning dastlabki shakllari – ishora (gesture), mimika, tovushlar (nutq paydo bo'lmasidan avval qichqiriq, g'o'ldirash kabi), piktogramma va rasmlar orqali fikr almashinuviga ehtiyoj sezilgan. Bular esa dastlabki xabarnoma tarzida shakllana bordi. Keyinchalik nutq paydo bo'la boshlagach, og'zaki xabarlarni, ma'lumotlarni yozuvda ifodalash talabi ortib bordi.

Ilk yozuvarlar – mixxat, Misr, Xitoy iyerogliflari, Ind (Harappa) harflari orqali papiruslarda, gil lavhalarida insonlar dastlabki yozma yodgorliklarni tarixga muhrladi. Mixxat yozuvida bitilgan "Gilgamish" dostonida maktub janrining dastlabki unsurlari ko'zga tashlanadi. Masalan, Gilgamish va Inkidu o'rtasidagi hissiyotga boy muloqotlar maktub janridagi ruhiy kechinmalarni ifoda etadi. Asarda maktub janriga oid parchalar mavjud bo'lmasa-da, ushbu janrga xos samimiyat, tuyg'u, murojaat, nasihat kabi elementlar bor.

"Alpomish" dostonining Umir safar o'g'li tomonidan aytilgan va Oxunjon Sobirov tomonidan yozib olingen variantida Barchinoya qalmoqlardansovchi kelgan mahal boshi qotgan Boysari og'asi Boybo'riga Elomon orqali maktub yo'llaydi [1, 57 b]. Bu dostonda Elomon tilidan "salom qog'oz" deya keltirilgan. Fozil Yo'ldosh baxshi variantida esa maktub o'rnida "arza" atamasi qo'llanilgan [2, 103 b]. Asardagi maktub janriga oid bu misra qofiyalari ochiq, ruklar turli xil. Og'zaki nutqqa xos "hayallamang", "o'yilsin ko'zim" kabi nutqiy birliklar, "erka qizim", "yuzi qora" sifatlashlari (epitet) maktub mazmun-mohiyatini kuchaytirgan. Boysari tili bilan aytilganda ushbu doston syujetida "qog'oz", ya'ni xatning ahamiyati kattadir. Chunki dostonda Barchinoy tomonidan yozilgan maktub (Fozil Yo'ldosh variantida maktub Barchinoy tomonidan Alpomishga yozilgan) Alpomishning "yor uchunmas or uchun" qalmoqlar yurtiga kelishiga, Alpomish tomonidan oilasiga yozilgan maktub esa Alpomishni yeti yillik zindondan qutqarilishiga sabab detali vazifasini bajarmoqda. Demak, maktub janrini asar sujetining termodinamikasi, personajni harakatga keltiruvchi, sirlardan voqif qiluvchi, haqiqatni oshkor etuvchi katalizator desak bo'ladi. Dostonda maktub aynan shunday vazifani bajargan. Maktub detali asar sujetini boshqarishga xizmat qilgan.

O'rta Osiyo va Eron xalqlarining boy madaniy yodgorligi "Avesto"da ham maktub janriga yaqin jihatlarni ko'rishimiz mumkin. "Avesto"dagi murojaat shakli (Zardushtning Ahura Mazda bilan suhbat), diologik uslub ("Yasna", "Visparad", "Gotlar" qismlarida Zardusht bilan ilohiy zotlar o'rtasidagi savol-javoblar) ham maktub janrining elementlaridandir. Qadimgi sof turkiy manbalaridan biri O'rxun-Enasoy obidalarida toshlarga o'yib yozib qoldirilgan matnlarda maktub janriga oid xususiyatlarni kuzatishimiz mumkin. Masalan, murojaat, kechinma, o'z fikrini ifodalash, nasihat va ogohlantirish yodgorlik matnlarida yetakchilik qiladi. Bu obidalardagi tarixiy faktlarni tom ma'noda o'tmishdan kelajakka yozilgan maktub deyish mumkin. Chunki, manbadagi

ma'lumotlar tarixga tegishli bo'lsa-da, chaqiriq, yakdillikka chorlash, vatanparvarlik barcha davr uchun birdek xos. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida maktub janri bilan bog'liq ko'plab istilohlar uchraydi. Jumladan, "yazmaq" – yozmoq, "bitig" – yozuv, xat, "yarluq" – hukmdorning yozma farmoni, ya'ni rasmiy maktub, "elchi" – xabar yoki maktubni yetkazuvchi shaxs, "habarchi" – xabar yetkazuvchi, ko'pincha maktub yetkazuvchi shaxsni bildiradi. Bu so'zlarining izohlari orqali o'sha davrda maktub yozish an'anasing ancha rivoj topganligini ko'rishimiz mumkin. Asarda "irqish" so'zi aynan "maktub" ma'nosida qo'llanadi [3, 67 b]. Muallif "qoshug'" so'ziga ta'rif berar ekan, lirik qahramon Turkon xotinga maktub yo'llab, "xodimi xizmatga tayyor" ekanini bildiradi [4, 71 b]. Asarda shunday keltiriladi: "Bir kishi Tangri tog'i etagida yurib, Tangut yurtidan bir maktub topib oldi. U maktubda shunday deb yozilgan: "Turkon xotunga keldi bu bitig". Bundan ma'lumki turkiy xalqlarda yozishma madaniyati ancha rivojlangan bo'lib, keyinchalik bu yozma adabiyotda maktub janrining paydo bo'lishiga zamin yaratdi. O'zbek adabiyotida yana bir bebafo bo'lgan qomus "Qutadg'u bilig" asarida "O'zg'urmishga xat" nomli qismi bo'lib, unda Kutug'di zohidona hayot kechiruvchi O'zg'urmishga o'n olti misralik maktub yozadi va hatto hukmdorlik muhrini ham bosadi. Kelgusi maqolalarimizda bu haqda batafsilroq ma'lumot beramiz. O'zbek mumtoz adabiyotining gultoji bo'lmish Navoiy "Xamsa" sida ham muhabbat maktublari, nasihatomuz maktublar, siyosiy maktublar hamda ma'rifiy-murojaat shaklidagi maktublarni ko'ramiz. "Munshaot" asari esa o'zbek adabiyotida maktub janrining eng muhim yodgorliklaridan biri. Asarda maktublar uch toifaga ajratilgan bo'lib, birinchi toifadagi maktublar sirasiga Navoiyning Husayn Boyqaroga yo'llagan yoziqlaridan iboratdir. Maktub janri taraqqiyotiga Zahiriddin Muhammad Bobur ham betakror memuar asari "Boburnoma"si orqali o'zining katta hissasini qo'shgan. Asarda siyosiy va diplomatic ruhdagi, shaxsiy mazmundagi va iltimos, maslahat ma'nosidagi maktublar mavjud. Bobur ba'zi o'rnlarda maktublarini she'riy parcha bilan yakunlab, maktub janrining klassik namunalariiga estetik bo'yoq bergan.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda maktub janri zamonaviy adabiyotda epistolyar janri sifatida tanildi. Epistolyar aloqa mohiyatan maktub janridagi ikki tomon o'rtasidagi fikr almashinuv ko'prigidir. Mumtoz adabiyotda "maktub", zamonaviy adabiyotda "epistolyar" sifatida mavjud va rivoj topib borayotga bu janr o'zbek adabiyotida qator tadqiqotlar ob'yekti bo'la oladi. Maktub janri qadimda har bir xalqning evolyutsiyasi, estetik dunyoqarashi, ijtimoiy aloqalari, asardagi personajlarning ruhiyati, tasavvur olamini, umuman, insoniyatning badiiy adabiyotdagagi aksini ko'rsatuvchi o'ziga xos oynadir. Shuning uchun ham maktub janri zamonalr osha o'z ahamiyatini yo'qotmay kelmoqda. Aksincha, badiiy adabiyotdagagi o'rnidan tashqari ijtimoiy hayotda ham turli zamonaviy ko'rinishlarda ommalashmoqda.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *Alpomish o'zbek xalq dostoni*. Fan, Toshkent-2018, 307-308 betlar.
2. *Алломиши*. - Тошкент. Маънавият. 1987. 57-бет.
3. Yusuf Xos Hojib. *Qutadg'u bilig*. -T.: Cho'lon nashriyoti, 2007.
4. Болтабоев Х, Махмудов М. *Адабий-эстетик тафаккур тарихи*. I жилд. - Т.: Мумтоз сўз. 2013.
5. Natan Mallayev. *O'zbek adabiyoti tarixi*. T.: Fan, 1976.
6. Abdurayimova Irodaxon. *Maktublarning tarixi haqida maqola*. <http://www.newjournal.org/> 2023-uil, iyul. 171-175 b.
7. <https://nauchniyimpuls.ru/index.php/noiv/article/download/15876/11454/11229>
8. www.ziyouz.com kutubxonasi.